



O‘ZBEK MILLIY MUSIQASIDA QASHQAR RUBOBINING O‘RNI

Raximov Ravshan Naimovich

*Buxoro davlat pedagogika instituti “Musika va tasviriy san’at”
kafedrasi dotsenti.*

Annotatsiya: Maqolada milliy cholg‘u asboblardan biri qashqar rubobining kelib chiqishi rivojlanishi va hozirgi kundagi ahamiyati o‘rganilgan. Milliy musiqa va milliy cholg‘u larni rivojlantirish haqidagi prezident qarorlari kiritilgan.

Kalit so‘zlar: Qashqar rubob, prezident qarorlari, 5 tashabbus, milliy cholg‘u lar, “Musika haqida risola”

РОЛЬ КАШГАРСКОГО РУБАБА В УЗБЕКСКОЙ НАЦИОНАЛЬНОЙ МУЗЫКЕ

Аннотация: В статье исследуется происхождение и значение кашкарского ревеня, одного из национальных инструментов. Включены президентские указы о развитии национальной музыки и национальных инструментов.

Ключевые слова: Кашкар рубоб, президентские резолюции, 5 инициатив, национальные инструменты, “Трактат о музыке”

THE ROLE OF THE KASHGAR RUBAB IN UZBEK NATIONAL MUSIC

Abstract: The article examines the origin and significance of Kashkar rhubarb, one of the national instruments. Presidential decrees on the development of national music and national instruments are included.

Keywords: Kashkar rubob, presidential resolutions, 5 initiatives, national instruments, “Treatise on Music”

An’anaviy cholg‘u ijrochiligi musiqa san’ati o‘zbek xalqining boy musiqa madaniyatida salmoqli o‘rin tutadi. Milliy cholg‘u asboblari ham milliy musiqa kabi o‘zligimizni anglashga yordam beradi. Milliy asboblarning tembri ovozi tuzilishi jihatdan juda qulay hisoblanadi. Har bir milliy cholg‘uning alohida o‘rni bor. Bular o‘z o‘rnini to‘ldirib turadi.

Buyuk olim al-Farobiy musiqa haqidagi risolasida shunday deb yozgan edi: “Kishi ovozigacha yaqin tovush chiqaradigan cholg‘u asboblari – rubob, nay va surnaydir, ular ovozga juda taqlid qiladi. Cholg‘u asboblari ashulaga jo‘r bo‘ladi, ashulaning boshlang‘ich musiqasini va uning orasidagi cholg‘u qismini hosil qiladi” deydi. Cholg‘u sozlarining Al-Farobiy ta’riflagan

vazifasi hozirgi davrgacha saqlanib kelinmoqda. Bu cholg‘u sozining bizning hududlarimizga qachon kelganligi va ommalashganligi haqida ba’zi ma’lumotlar mavjud. Chunonchi Darvish Ali Changiyning “Musiqiy risola”sida yozilishicha rebob(yani rubob) Sulton Muhammad Xorazmshoh davrida ham mavjud bo‘lgan.O’sha paytda ham rubobning tori beshta bo‘lgan,ammo uning to‘rtta tori ipakli,beshinchisi esa kumush simli bo‘lgan. 1936 yilda Toshkentda o‘zbek xalq cholg‘u sozlaridan iborat ansambl tuziladi. Ansamblga To‘xtasin Jalilov rahbarlik qiladi. Ansamlnda nay, ijjak, chang, dutor, tanbur, doira sozlari bo‘lib, rubob unga keyinroq kiritilgan. Chunki u davrda rubobning sozi ansamblga mos emasdi. Uning pardalar soni kam edi.

1936 yilda ansamblga kelgan Muhammadjon Mirzayev keyinchalik rubobdagi kamchiliklarni to‘ldirdi.Rubob pardasi (tovush orali) sonini oshirishga, rubob torlarini ichak va po‘lat simli torlarga almashtirishga va parda tovushlarini ansamlga moslashtirishga ancha hissa qo‘shdi. M.Mirzayev qashqar rubobi sozini xalqimiz orasida ommalashib ketishiga sababchi bo‘ldi.Ustoz san’atkor o‘zining jozibali ijrosi bilan tinglovchilar diqqatini jalb etdi.Turli vohalarda bu cholg‘u havaskor ijrochilar va mutaxassislar uchun qulay va sevimli sozga aylandi.⁶

Qashqar rubobi ovoz jihatidan, tuzilishi jihatidan qulay asboblardan biridir. Hattoki bu chog‘lu asbobi o‘zbek xalq chog‘lu orkestrida ham o‘zining o‘rniga ega.

Rubob cholg‘u asbobi Markaziy Osiyo xalqlari o‘zbeklar tojiklar, uyurlar orasida qadimiy va ommalashgan cholg‘ulardan biri hisoblanadi. Qashqar rubobining asosan qachon va qayerda paydo bo‘lganligi haqida aniq ma’lumotlar yo‘q. Shunga qaramay tarixiy manbalarda “rabob”, “rebab”, “rubob” deb ko‘plab ma’lumotlarda uchraydi.Xususan XVII asrda Buxoroda yashab ijod qilgan Darvish Ali Changiyning “Musiq haqida risola” asarida XVI-XVII asrlardagi cholg‘u lar va sozandalar haqida ma’lumotlar keltirilgan.Tanbur, ud, chang, qonun, rubob, qo‘biz, ijjak kabi asboblari o’sha davrning keng qo‘llanilgan cholg‘ularidan hisoblangan. O‘zbek kompozitorlaridan M.Mirzayev va havaskor musiqachilar orqali 1940-yillarda O‘zbekiston va Afonistonda keng tarqaldi. Qashqar rubobi orkestrlarda yakka soz sifatida qo‘llaniladi⁷. XX asrning 40-50 yillaridan boshlab Toshkent Davlat Konservatoriyasi qoshida cholg‘u larni o‘rganish va takomillashtirish maqsadida professor A.I Petrosyans boshchiligida eksperimentallaboratoriya tashkil qilinib unda o‘zbek xalq cholg‘u lar qayta ishlana boshlandi. Jumladan qashqar rubobi qayta ishlanib prima ,alt, messo-soprano kabi turlari yaratildi. Natijada qashqar rubobida o‘zbek xalq musiqasi bilan birga ko‘plab boshqa xalqlar kuylari va kompozitorlar asarlarini ijro etish imkoniyati paydo bo‘ldi va asta sekinlik bilan qashqar rubobi keng qo‘llanila boshlandi.⁸

Qashqar rubobining ovozi jarangdorligi, qulayligi sababli maktabgacha ta’lim dargohlarida, maktablarda va hattoki oliy ta’limda ham ijro etiladi. Qashqar rubobining

⁶ R. Abdurahimov Cholg‘u ijrochiligi (rubob) O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2016

⁷ O.F.Nazarov “Qashqar rubobida o‘qitish uslubiyoti 7-bet

⁸ O.F.Nazarov “Qashqar rubobida o‘qitish uslubiyoti 9-bet

diapazoni 3 oktavaga yaqin. Dastasidagi pardalar 24 ta bo‘lib bu pardalar metallardan qilinadi. Har bir parda orasi yarim tondan tashkil topgan. Qashqar rubobi: quloqlar, qashqar rubobining bosh qismi, shayton xarrak, pardalar, dastasi, teri, xarrak, ilmoqlar va kosadan iborat. Qashqar rubobining 5 ta simi bo‘lib, birinchisi kichik oktava si ga sozlanadi, o‘rtadagi ikkita simi birinchi oktava mi notasiga sozlanadi, uchunchi ikkita simi birinchi oktava lya notasiga sozlanadi. Qashqar rubobini mediator bilan ijro etiladi. Qashqar rubobini cholish qulayligi sababli ko‘plab musiqa o‘qituvchilar dars jarayonida undan foydalanadi. Bu esa yosh o‘quvchi yoshlarni milliylikka undaydi.

Qashqar rubobiga xos bo‘lgan ijro imkoniyatlari maqom va maqom yo‘llaridagi musiqiy namunalar talqinida namoyon bo‘lishini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Chunki hozirgi paytda nisbatan sodda xalq kuylarini ijro etishda yoki ashulachilar tomonidan jo‘rnavor cholg‘u sifatida ishlatilganida qashqar rubobining barcha imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanilmaydi. Shuning uchun bo‘lsa kerak havaskor rubobchilar ham mutaxassis sozandalar repertuaridagi murakkab kuylarni ijro etishga intiladilar.

Qashqar rubobi hozirda yakka soz sifatida o‘zbek xalq ansamllarida yetakchi o‘rinni egallaydi. Qashqar rubobining diapazoni kichik oktava lya tovushidan uchunchi oktava lya tovushigacha. Qashqar rubobining beshta simi bo‘lib to‘rttasi metall aralashmasidan bittasi ichak yoki ipakdan qilinadi. Sozlanishi kvarta va kvinta oraliida bo‘ladi. Ya’ni birinchi sim-lya tovushiga, ikkinchi sim-re yoki mi tovushiga, uchunchi sim esa lya yoki si tovushlariga sozlanadi.

Rubob chalish san’atida ustozlik darajasiga yetgan sozandalar Muhammadjon

Mirzayev, Shavkat Mirzayev, Ari Boboxonov, Orif Atoyev, Sulaymon Taxarov, Adham Xudoyqulov, Tohir Rajabiy, Rifatilla Qosimov, Abdurahim Muhammedov, Shomahmud Shoraxmetovlar nomlarini keltirib o‘tish mumkin.

Xulosa qilib aytganda Qashqar rubobu o‘tmishda ham, hozirda va kelajakda ham o‘zining jarangdor ovozi hamda qulay ijrosi uchun mavqeini yo‘qotmaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.02.2022 yildagi PQ-112-son
2. Ravshan Abduazimov Cholg‘u Ijrochiligi (Rubob) o‘quv qo‘llanma “Musiqqa” nashriyoti Toshkent-2016
3. O.F. Nazarov “Qashqar rubobida o‘qitish uslubi”. Toshkent-2008
4. Равшан Наимович Рахимов. "Учебная мотивация у школьника, через пения в хоре" Science and Education, vol. 3, no. 4, 2022, pp. 1570-1575
5. Равшан Наимович Рахимов. "Музыка как наука для формирования личности и основа организации музыкального образования и воспитания" Science and Education, vol. 3, no. 4, 2022, pp. 1588-1593.
6. Naimovich, Rakhimov Ravshan, and Abdullayeva Shahnozabonu Adizovna. "Culture the Role and Importance of the Kashgar Rhubarb Instrument in Music Lessons." *Czech Journal of Multidisciplinary Innovations* 16 (2023): 1-3.

7. Naimovich, Raximov Ravshan, and Akramova Maftunabonu Kurbonovna. "SHAXS TARBIYASIDA MUSIQANING AHAMIYATI." *Ustozlar uchun* 58.3 (2024): 61-65.
8. Naimovich, Raximov Ravshan. "MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA MILLIY CHOLG ‘ULARDAN FOYDALANISH." *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi* 4.3 (2024): 7-11.
9. Naimovich, R. R. "Methods of using interactive methods in preschool educational organizations, conducting music classes." *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching* 10 (2022): 29-32.
10. Rakhimov, Ravshan Naimovich. "Ways to Develop Music Perception Skills." *Innovative Science in Modern Research* (2023): 125-128.
11. Rakhimov, R. N. "THE IMPORTANCE OF FOLK SONGS IN YOUTH EDUCATION." *Web of Teachers: Inderscience Research* 2.2 (2024): 45-48.
12. Рахимов, Равшан Наимович. "РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ МУЗЫКИ В СОЗРЕВАНИИ ЛИЧНОСТИ." *Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies*. Vol. 3. No. 2. 2024.
13. Rakhimov, R. N., and O. Sh Sharipov. "THE ROLE OF MUSIC ART IN THE FORMATION OF A HIGHLY SPIRITUAL PERSONALITY IN YOUTH." *International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices*. 2024.